O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
INSON RESURLARI VA MAHALLA
TARAQQIYOTINI BOSHQARISH
INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi: № BD- 60411000 2024-yil “12” 10		**“TASDIQLAYMAN”** SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024-yil “__” _____

“INSON TARAQQIYOTI”
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410000 – Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishi:	60411000 – Inson resurslarini boshqarish

Fan/modul kodi ITIK1505	O‘quv yili 2026-2027	Semestr V	ECTS – Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
	INSON TARAQQITOTI	64	86	150

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o‘qitishdan maqsad** – inson taraqqiyoti konsepsiyasining nazariy va amaliy asoslari, jahonda va alohida bir mamlakat miqiyosida insonning asosiy barqaror rivojlanish tendensiyalari (yo‘nalishlari) ni baholanishi va monetoringiga dolzarb ilmiy va amaliy yondashuvlarni mufassal o‘rganib chiqishdan iborat. **Fanning vazifasi** – inson taraqqiyoti komponentlari, jihatlari va omillarini, inson taraqqiyoti va unung dastlabki holatining integral indeksini hisob-kitob qilish usulini ko‘rib chiqish, ushbu konsepsiyaning iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o‘sish modellari bilan o‘zaro aloqasini o‘rganib chiqish, global va milliy darajada ushbu muammoni ming yillik rivojlanish maqsadlariga muvofiq tarzda vazifalari va istiqbollarini tahlil etishni o‘z ichiga oluvchi inson taraqqiyotining asosiy kosepsiyalarini bayon qilish hisoblanadi.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
M1	**“Inson taraqqiyoti” fanining predmeti va mazmuni** “Inson taraqqiyoti” tushunchasi. Fanining predmeti va mohiyati, asosiy maqsad va vazifalari. Fanni o‘rganishning asosiy usullari. Boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi. Inson taraqqiyotining asosiy tamoyillari: maxsuldorlik, tenglik, barqarorlik, imkoniyatlarni kengaytirish. Insonni ishlab chiqarish faoliyatining asosiy maqsadi sifatida rivojlanishi. Inson taraqqiyoti va iqtisodiy o‘sishning o‘zaro aloqasi. Inson taraqqiyoti konsepsiyasi manbai. Inson taraqqiyoti konsepsiyasi kelgusidagi rivojlanishi – barqaror rivojlanish konsepsiyasi va uning asosiy elementlari. Inson taraqqiyoti konsepsiyasining yuzaga kelishi.
M2	**Inson taraqqiyoti konsepsiyasi**
	Inson taraqqiyotining asosiy unsurlari. Inson taraqqiyoti konsepsiyaning yuzaga kelishi va shakllanishi. Inson taraqqiyoti jihatlari. Insonning barqaror rivojlanishi. O‘zbekistonda inson taraqqiyoti konsepsiyasini targ‘ib etish. Inson huquqlari bo‘yicha huquqlar, xalqaro hujjatlar va standartlar. Inson huquqlarining universalligi va madaniy relyativizm muammolari. O‘zbekistonda inson taraqqiyoti kontekstida inson huquqlariga rioya qilish masalalari.
M3	**Inson taraqqiyoti indeksi va uni o‘lchash usullari** Inson huquqlarining umum deklaratsiyasi. Insonning munosib mavjud bo‘lishining asosiy elementlari va huquq va erkinliklari sifatida ularni deklaratsiyaga biriktirilishi. Inson huquqlari bo‘yicha huquqlar, xalqaro hujjatlar va standartlar. Inson huquqlarining universalligi va madaniy relyativizmmuammolari. O‘zbekistonda inson taraqqiyoti kontekstida inson huquqlariga rioya qilish masalalari. Inson taraqqiyotida BMT tizizmining roli. BMT nizomi va inson huquqlarining umum Deklaratsiya – inson taraqqiyotining amaliy konsepsiyasi. Mingyillik rivojlanish maqsadlari.
M4	**Mingyillik deklaratsiyasi va mingyillik rivojlanish maqsadlari** Iqtisodiy xavfsizlikni taminlashning maqsadi. Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional sharoitlarining yaratilishi. Iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi. Davlatning iqtisodiy strategiyasi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda davlatning tartibga soluvchilik vazifalari. Iqtisodiy xavfsizlik sohasida qo‘llanuvchi siyosiy vositalar. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini tashqi iqtisodiy mexanizmi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda davlatning asosiy vazifalari. O‘zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari.
M5	**Inson taraqqiyotida BMT tizimining tutgan roli** BMT nizomi va inson huquqlarining umum deklaratsiyasi inson taraqqiyotining amaliy konsepsiyasi. YUNESKO, YUNIDO, YUNIFEM, YUNKTAD, YUNISEF, UNAIDS faoliyati va insonni va barkamol rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratish. Inson taraqqiyoti masalarini hal etishda mamlakatlarga amaliy yordam ko‘rsatish.
M6	**Iqtisodiy o‘sish va inson taraqqiyoti** Iqtisodiy o‘sishning asosiy nazariyalari. Iqtisoiy o‘sish va uning o‘lchanishi. Iqtisodiy o‘sishning omillari va turlari. Iqtisodiy o‘sishning neokensians nazariyalari. Iqtisodiy o‘sishning neoklassik nazariyasi. Iqtisodiy o‘sishning empirik nazariyasi. Endogen o‘sishning yangi nazariyasi. Inson taraqqiyoti maqsadlarida iqtisodiy o‘sish. Iqtisodiy o‘sishning sifat mezonlari. Iqtisodiy o‘sish va inson taraqqiyoti o‘rtasidagi o‘zaro aloqa. Inson taraqqiyoti uchun sanoat o‘sishining ahamiyati. O‘zbekistonda saoatni rivojlantirish xususiyatlari. Tarkibiy islohatlar dinamikasi. Barqaror rivojlanishning qishloq xo‘jaligi bilan o‘zaro aloqasi.
M7	**Turmush darajasi va inson taraqqiyoti**

	Turmush darajasi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari. Moddiy ne'matlari va xizmatlari soni bo'yicha turmush darajasi ko'rsatkichlari va indikatorlar tizimi: kamchilik, normal daraja, nochorlik, qashshoqlik. Tengsizlikni hisobga olgan holda to'g'rilangan inson taraqqiyoti indeksini hisoblash. Qashshoqlik koeffisienti. Nochorlikning ko'p o'lchamli indeksini hisoblash. Aholining turmush darajasini baholashda uning pullik daromadlari. Daromad darajasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy indekatorlari. Aholining pullik daromadlari va hujjatlari tarkibi.
M8	**Demografik vaziyat va uning inson taraqqiyotidagi o'rni** Demografik rivojlanishning mohiyati. Demografik holatni baholash ko'rsatkichlari. Demografik holatning kompleks tahlili. Aholining demografik tarkibi: yosh, jins, ijtimoiy, hududiy. Aholini qayta tiklash turlari. Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari. Onalar va bolalar o'limi ko'rsatkichlari. Aholining tabiiy o'sishi. Oilani rivojlantirish va shakllantirish. Oilaning vazifalari, tarkibi va turlari. Zamonaviy oila transformatsiyasi. O'zbekistonda demografik rivojlanish tendensiyalari. O'zbekistonda demografik siyosatning istiqbolli yo'nalishlari.
M9	**Pensiya ta'minoti va aholining keksayishi** Pensiya ta'minotining inson ta'minoti bilan bog'liqligi. Pensiya ta'minotining tamoyillari va mexanizmlari. Pensiya ta'minotining turlari va ularni hisoblash usullari. Pensiya jamg'armasining daromadlari va harajatlarini modullashtirish. Nodavlat pensiya jamg'armalari. Imtiyozli pensiya tizimi. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti xususiyatlari. Pensiya tizimini isloh qilish yo'llari. Aholining keksayish sharoitida davlat pensiya ta'minoti. O'tish iqtisodiyoti mamlakatda inson taraqqiyoti muammolari va pensiya ta'minotidagi inqiroz. Keksa aholining barqaror inson taraqqiyotiga o'tish yo'llari.
M10	**Inson taraqqiyoti va salomatlik** Salomatlik va inson taraqqiyoti oqibatlari va shart-sharoitlari sifatida uzoq umr kechirish. Uzoq umr kechirishni o'lchash. "Salomatlik" tushunchasining ta'rifi. Salomatlik darajasini o'lchash usullari. O'lim to'g'risidagi ma'lumotlar asosida aholining salomatligini o'rganish. O'lim oldida ijtimoiy tengsizlik. Hozirgi O'zbekistonda salomatlik va inson taraqqiyoti. Salomatlik va o'lim to'g'risidagi ma'lumatlarning foydali manbalari. Yuqumli kasalliklarga qarshi kurash va profilaktika yordami. Aholi salomatligiga ovaqatlanishning ta'siri. O'zbekistonning sog'liqni saqlash tizimi.
M11	**Ta'lim va inson taraqqiyoti** Ta'lim – inson taraqqiyotining asosi sifatida. Inson taraqqiyotiga ta'limning ta'siri. Hozirgi jamiyatda ta'limning roli va ahamiyati. Ta'lim modellari: Yevropa, Amerika va Osiyo. Ta'lim bo'yicha xalqaro konvensiya va deklaratsiyalar. Milli ta'lim siyosatning huquqiy asoslari. O'zbekistonda ta'lim tizimining asosiy turlari. Ta'lim tizimlari va ta'lim modellari tasnifi. Ta'limning xalqaro standart tasnifi va jahon ta'lim modellari va bosqichli tizimlari tasnifi. Ta'limning o'rtacha davomiyligi. Ta'limning asosiy modellari. Ta'lim tizimi. Inson taraqqiyoti masalalari tarmog'ida ta'limning o'zbek milliy modelini shakllantirish.
M12	**Inson taraqqiyoti omillari** Gender va inson taraqqiyoti. Gender va ayollar mavqiyi. BMT ning ayollarga nisbatan taraqqiyot Dasuriga yondashuvlar evolyutsiyasi (paydo bo'lishi). Gender tengsizlik. Jamiyatda gender tadqiqotlarin yuzaga kelishi. Gender tengsizlikni o'lchash. Gender omilini hisobga olgan holda rivojlanish indeksi. Ayollarning o'rtacha yashash davomiyligi indeksi. Erkaklarning o'rtacha yashash davomiyligi indeksi. Ayollarning ta'lim olish indeksi. Erkaklarning ta'lim olish indeksi. Ayollar uchun daromad indeksi. Erkaklar uchun daromad indeksi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S)
Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

A1	Inson taraqqiyoti fanining predmeti va mohiyati
A2	Inson taraqqiyoti konsepsiyasi
A3	Inson taraqqiyoti indeksi va uni o'lchash usullari
A4	Mingyillik deklaratsiyasi va mingyillik rivojlanish maqsadlari
A5	Inson taraqqiyotida BMT tizimining tutgan roli
A6	Iqtisodiy o'sish va inson taraqqiyoti
A7	Turmush darajasi va inson taraqqiyoti
A8	Demografik vaziyat va uning inson taraqqiyotidagi o'rni
A9	Pensiya ta'minoti va aholining keksayishi
A10	Inson taraqqiyoti va salomatlik
A11	Ta'lim va inson taraqqiyoti
A12	Inson taraqqiyoti omillari

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**
Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular
"Inson taraqqiyoti" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Insonni rivojlantirish ishlab chiqarishfaoliyatining asosiy maqsadi sifatida
2.	Ta'lim sohasida inson taraqqiyoti konsepsiyasini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari
3.	Inson taraqqiyoti konsepsiyasining yuzaga kelishi
4.	O'zbekistonda inson taraqqiyoti konsepsiyasini targ'ib etish
5.	Inson taraqqiyotini o'lchash. Inson taraqqiyoti indeksi

6.	ITIhisoblash usuli
7.	O‘zbekistonda demografik siyosatning istiqbolli yo‘nalishlari
8.	Milliy mingyillik rivojlanish maqsadlari O‘zbekistonda inson taraqqiyotining strategic masalasi sifatida
9.	Aholi faravonligini oshirishning mintaqaviy jihatlari
10.	O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining yuzaga kelish va tavsiflari
11.	Ijtimoiy yordamni kuchaytirish bo‘yicha ijtimoiy siyosat choralari
12.	Barqaror rivojlanish maqsadida atrof-muhitni boshqarish tizimini takomillashtirish
13.	O‘zbekistonda gender munosabatlari tahlili
14.	O‘zbekistonda bandlik sohasidagi asosiy tendensiyalar
15.	Salomatlik inson taraqqiyotining tayanch sharti sifatida

“Inson taraqqiyoti” fani bo‘yicha mustaqil ta’lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko‘nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. Mazkur vazifalarni yaxshiroq tasavvur qilish va amalga oshirishda ushbu fan ham ma’lum hissa qo‘shadi, deb o‘ylaymiz. Shundan kelib chiqqan holda fan vazifasi aniqlangan: oliy ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari talablariga muvofiq talabalar, o‘quvchilarda tadbirkorlikning mohiyati, ahamiyati va roli, belgilari va tamoyillari, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, insoniy, boshqarish, marketing, tahliliy asoslari to‘g‘risida bilimlar tizimini shakllantirish; O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash siyosati, amaliyoti, muammolari va istiqbollari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish; tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to‘g‘risida talabalar qay tarzda o‘zlashtirish, bilim ko‘nikmasiga ega bo‘lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: • Inson taraqqiyotining asosiy tamoyillari, unsurlari, mezonlari va indikatorlari hamda inson faoliyati bilan bog‘liq global xavflar haqida ***tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;*** • Iqtisodiy rivojlanishning inson taraqqiyotiga ta’sirini aniqlash ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;*** • Inson taraqqiyoti indeksini hisoblash, inson taraqqiyoti jihatlari va omillarini aniqlash, inson taraqqiyoti konsepsiyasining kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash ***malakasiga ega bo‘lishi kerak.***
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o‘z-o‘zini nazorat.* • “Aqliy hujum”, • “Muammo”; • Krossvord • Annogrammalar • Ko‘chma dars mashg‘ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta’limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Q.X.Abduraxmonov, S.P.Qurbonov. Inson taraqqiyoti. O‘quv qo‘llanma □ T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021, 180 bet
2. Xaydarov Z. Inson taraqqiyoti. O‘quv qo‘llanma, Namangan. NamDU, 2018 yil. -180b.
3. Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X.Abduraxmonov tahriri ostida. –T.: Fan va texnologiya, 2013. -476 b.

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2. ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi // www.lex.uz
4. Человеческое развитие. Учебное пособие./ под общей редакцией д.э.н., проф. Абдурахманова К.Х. и д.э.н., проф. Жумаева Н.Х. – Т.: «Фан ва технология», 2012. -376 с.

AXBOROT MANBALARI:

1. https://president.uz/uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
2. https://www.imv.uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti
3. https://mehnat.uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy veb-sayti
4. https://gov.uz/en/miit – O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va

	savdo vazirligining rasmiy veb-sayti 5. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy-veb-sayti. 6. https://soliq.uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining rasmiy veb-sayti 7. https://www.lex.uz/uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik hujjatlari elektron bazasi.
7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024-yil 30" 08 dagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar:** **B.S.Boltayev** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, “Inson resurslarini boshqarish” kafedrasi o‘qituvchisi, i.f.f.d.
9.	**Taqrizchilar:** X.A.Karjavova – SamDU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, PhD +998 91 524 87 87 Sultonov Sh. – SamISI, “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent. +998 99 025 45 07

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug‘i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma’sul ishchi guruhi:

Rais - Arabov N.U.

Kafedra mudiri: **N.U.Arabov**

Institut direktori: **Sh.D.Djurakulov**

Sh. Rashidov nomidagi SamDU O‘quv ishlari bo‘yicha 1-prorektor: **A. S. Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Inson resurslarini boshqarish kafedrasi o‘qituvchisi PhD B.S. Boltayevning “Inson taraqqiyoti” faniga tayyorlagan fan dasturiga

TAQRIZ

Globallashuv sharoitida jahonning yetakchi davlatlari taraqqiyoti uchun sanoat rivojlanishidan keyingi bosqich xos bo‘lib, bu bosqichda iqtisodiy o‘sish omillarining roli va o‘rni o‘zgarmoqda. An’anaviy hisoblab kelingan uch: mehnat, yer, kapital omillariga fan-texnika taraqqiyoti omili ham qo‘shildi, axborot va bilimlar esa eng muhim resurslarga aylandi. Innovatsion iqtisodiyot bevosita ana shu asosda shakllanib, ushbu iqtisodiyotda inson va uning salohiyati hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.

Barqaror rivojlanish maqsadlari - kambag‘al, boy va o‘rtacha rivojlangan barcha mamlakatlar tomonidan harakatga chorlovchi o‘ziga xos da’vatdir. Ular bizning sayyoramizning farovonligi va himoyasini yaxshilashga qaratilgan. Dunyo mamlakatlari qashshoqlikni bartaraf etish choralari iqtisodiy o‘sishni kuchaytirish va ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va bandlikni ta’minlash, shuningdek, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi bir qator muammolarni hal etish bo‘yicha sa’y-harakatlar bilan birgalikda qabul qilinishi zarurligini tan oladilar.

Uzoq vaqt davomida iqtisodiy tafakkur moddiy boylik orttirish sohasida ro‘y berayotgan jarayonlar ta’sirida edi. Moddiy omillarga universal va hal qiluvchi vosita sifatida qaralardi.

Shunday ekan, jamiyatning barcha iqtisodiy va ijtimoiy muammolariga mehnat tushunchasi nuqtai nazaridan yondashib, bu muammolarni hal etishga “Inson taraqqiyoti” fani orqali erishish mumkin.

Shularni inobatga olib, “Inson taraqqiyoti” fani yuzasidan tayyorlangan fan dasturi talabalarga yuqori darajada bilim olishiga ko‘makchi bo‘ladi deb hisoblayman.

Taqrizchi:
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi mudiri,
i.f.n., dotsent Sh.Sultonov

IMZONI TASDIQLAYMAN
SamISI
KADRLAR BO‘LIMI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Inson resurslarini boshqarish kafedrasi o'qituvchisi PhD B.S. Boltayevning "Inson taraqqiyoti" faniga tayyorlagan fan dasturiga

TAQRIZ

Jamiyatda sanoat rivojlanishi bosqichidan avval iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tabiiy va mehnat resurslariga, sanoat rivojlanishi bosqichida moddiy resurslarga ustuvorlik berilgan bo'lsa, sanoat rivojlanishidan keyingi hozirgi bosqichda intellektual va axborot resurslarining roli birinchi o'ringa chiqmoqda. Jahonning yetakchi mamlakatlari taraqqiyoti yangi – bilimlar, innovatsiyalar, global axborot tizimlari, yangi texnologiyalar va venchur biznesi iqtisodiyotini shakllantirishga olib keldi. Innovatsion iqtisodiyotning asosini hozirgi davr jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hal qiluvchi kuchi hisoblangan inson kapitali tashkil etadi. Ya'ni inson tafakkuri ishlab chiqarish tizimining shunchaki muayyan unsuri bo'lib qolmasdan, balki bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi. Dastavval insonni rivojlantirish tushunchasining tarkibiy qismlari u qadar ko'p bo'lmasdan, tarbiya, ta'lim, bilim, salomatlikni qamrab olardi. Shu bilan birga uzoq vaqt davomida insonni rivojlantirishga iqtisodiy o'sish nazariyasi nuqtayi nazaridan taraqqiy etishning ijtimoiy, ya'ni chiqimli omili sifatida qaralardi.

Insonni rivojlantirish – odamlarning uzoq va sog'lom, munosib turmush kechirishlari, ma'lumotli bo'lishlari uchun zarur vositalardan foydalanishlari imkoniyatlarini kengaytirishdir. Ammo bu imkoniyatlarni odamlarning o'zlari tanlaydilar. Rivojlantirish jarayoni insonga uning ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiq ravishda o'zini rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratishga xizmat qilishi kerak. Insonni rivojlantirish tushunchasi uning qobiliyati va imkoniyatlarini shunchaki shakllantirishga qaraganda ancha kengroqdir.

Shundan kelib chiqqan holda, 2024-2025-yillarda izchil yuqori o'sish sur'atlarini, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va iqtisodiyotimiz raqobatdoshligini oshirish eng muhim ustuvor yo'nalishimizga aylanishi lozim.

Shunday ekan, jamiyatning barcha iqtisodiy va ijtimoiy muammolariga mehnat tushunchasi nuqtai nazaridan yondashib, bu muammolarni hal etishga "Inson taraqqiyoti" fani orqali erishish mumkin.

Shularni inobatga olib, "Inson taraqqiyoti" fani yuzasidan tayyorlangan fan dasturi talabalarga yuqori darajada bilim olishiga ko'makchi bo'ladi deb hisoblayman.

Taqrizchi:
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, PhD X.A. Karjavova